

**TIBBIYOT INSTITUTI TALABALARINING TIBBIY INGLIZ TILINI
BILISH DARAJASINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI**

Latipova D

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Sayang1977@mail.ru

Kirish

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan sog'liqni saqlash sanoatida sifatli tibbiy yordamni ta'minlash uchun samarali aloqa o'rnatish muhim ahamiyatga ega u hoh hamkasblar bilan hoh bemorlar bilan bo'lsin. Shu bilan bir qatorda sifatli tibbiy yordam ko'rsatish tibbiyot hodimini o'z ustida uzluksiz ishlashi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ko'pgina adabiyotlar yoki yangi kashfiyotlar birinchi ingliz tilida chop etiladi va ommaga taqdim etiladi. Bu esa tibbiyot instituti talabalarini tibbiy ingliz tilini o'zlashtirishi zarurligini anglatadi. Ma'lumki, ingliz tili yurtimizda xorijiy til sifatida o'qitiladi. Ingliz tili ona tili bo'lmagan tibbiyot talabalari uchun tibbiy ingliz tilini o'zlashtirish, maxsus terminologiya, tibbiy mavzularda tezkor o'zaro fikr almashinish va kasbga doir dialoglarni qo'llash o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Til o'qitishdagi an'anaviy usullar ko'pincha til o'rganishga bo'lgan talablarni qondira olmaydi, bu esa innovatsion o'qitish strategiyalarini va metodlarini qo'llashni talab qiladi. Quyida tibbiyot instituti talabalarining tibbiy ingliz tilini bilish darajasini oshirish uchun qo'llanilishi samarali natijalar beradigan bir qator usullar ko'rib chiqiladi. Bular: vazifalarga asoslangan ta'lim (task-based learning), rol o'ynash orqali o'rganish (simulation and role-play), muammoli vaziyatni hal qilishga asoslangan ta'lim (problem-based learning), va texnologiyaga asoslangan ta'lim (technology integration).

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, inovatsion usullar, vazifalarga asoslangan ta'lim, rol o'ynash orqali o'rganish, muammoli vaziyatni hal qilishga asoslangan ta'lim, texnologiyaga asoslangan ta'lim.

Vazifalarga asoslangan ta'lim (TBL)

Vazifalarga asoslangan ta'lim (TBL) metodini qo'llashda o'quvchilarga real hayotda ishlatiladigan so'zlar, frazalar va voqealar taqdim etiladi va bu o'zlashtirishni samaradorligini oshiradi. Ellis (2003) fikriga ko'ra tabiiy muloqot tilni yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi ko'r-ko'rona yodlab olishdan ko'ra. Misol tariqasida, avval o'quvchilarga mavzuga doir so'zlar taqdim etiladi, keyin shu so'zlar ishtirokida vaziyatlarda ro'l o'ynash orqali ya'ni bemor konsultatsiyasi, bemorni tibbiy tarixini qayd qilish yoki favqulotda holatlarda bemorlarga tez yordam ko'rsatishda tildan foydalanib til o'zlashtiriladi.

Simulyatsiya va rol o'ynash (role-play)

Simulyatsiya va rol o'ynash metodi o'quvchilarga tibbiy ingliz tilidan real hayot voqealarida foydalanish imkoniyatini beradi. Ular bemorlar bilan suhbat, vaziyatdan kelib chiqib tibbiy maslahatlarni berish yoki ilmiy taqdimotlarni taqdim qilishni sinab ko'rishlari mumkin bo'ladi. Rol o'ynash metodida guruh talabalariga rollar bo'lib beriladi va stsenariy bo'yicha rol o'ynashadi. Talabalar o'zlarini o'sha vaziyatda his qilib ko'rishadi va bu real hayotda ularga yaxshi tajriba bo'ladi (Westrup & Planander, 2013). Bu usul o'quvchilarga muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'ziga ishonchni mustahkamlash va o'qtuvchi tomonidan o'zlarining bajargan ro'llaridagi xato yoki kamchiliklariga tegishli fikr-mulohazalarni olish imkonini beradi.

Muammoli vaziyatni hal qilishga asoslangan ta'lim (PBL)

Muammoli vaziyatni hal qilishga asoslangan ta'lim (PBL) bu metodda o'quvchilar haqiqiy hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga yechim topadilar. Bu usul talabalarda tanqidiy fikrlashni, hamkorlikda ishlashni va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Tibbiy ingliz tilini PBL metodi ya'ni muammolardan foydalanib til o'rganishda samarali usul deb tavsiya etilgan (Barrows & Tamblyn, 1980). Tibbiy ingliz tilini o'zlashtirishda PBL metodini qo'llash talabalardan tibbiy ingliz tilidan foydalanib tibbiy muammolar haqida izlanish olib borish, muhokama qilish va yechimlarni taqdim etishni talab etadi.

Texnologiyaga asoslangan ta'lim (technology integration)

Texnologiyaga asoslangan ta'limning ustun tamonlari shundaki, hozirgi avlodni diqqatini jamlab turishda yaxshi samara beradi. Video ko'rgazmalar, podkastlar, o'qituvchi tomonidan yaratilgan interaktiv onlayn o'yinlar (kahoot, worldwall), mavzuga doir quiz lar shular jumlasidandir. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va real materiallar, interfaol mashqlarni dars mobaynida qo'llash imkonini beradi. Onlayn flesh-kartalar yangi so'zlarni oson esda saqlab qolishga katta yordam beradi. Texnologiya orqali haqiqiy materiallardan nusxalar olishimiz va talabalarga dars jarayonida taqdim etilishi, til ko'niklarani sifatliroq o'zlashtirishga imkon beradi. Bundan tashqari, online resourslada onson tushuniladigan ensiklopediyalar, ingliz tilidagi turli xil foydali kontentlar va videolardan foydalanish mumkin (Warschauer, 2003). Yana talabalar ham o'z ustilarida ishlashlariga, yangi ishonchli ma'lumotlarni olishlariga imkon beradi. Bundan tashqari, darslarni yanada qiziqroq bo'lishi uchun o'qituvchi turli xil kreativ slaydlardan foydalanishi mumkin (canva, viseme).

Xulosa

Tibbiyot instituti talabalarining tibbiy ingliz tilini bilish darajasini oshirishda innovatsion usullar qo'llanishi talab etiladi. Bunda quyidagi usullar samarali hisoblanadi: vazifalarga asoslangan ta'lim, rol o'ynash orqali o'rganish, muammoli vaziyatni hal qilishga asoslangan ta'lim, va texnologiyaga asoslangan ta'lim. Bu usullar muloqotdagi lingvistik to'siqlarni bartaraf etish va professional muloqotni yaxshilash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari talabalarning so'z boyligi va muloqotda o'zlariga ishonchni ham oshiradi.

References

1. Barrows, H. S. and Tamblyn, R. M. (1980). *Problem-Based Learning: An Approach to Medical Education*. New York:Springer.
2. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
3. Warschauer, M. (2003). *Technology and Social Inclusion: Rethinking the digital divide*. MIT Press.
4. Westrup, U., & Planander, A. (2013). Role-play as a pedagogical method to prepare students for practice: The Students' Voice. *Högre Utbildning*, 3(3), 199–210. <https://doi.org/10.23865/hu.v3.801>